



ISSN: 3060-4613

PSIXOLOGIYA YO'NALISHI




№06/2025

M

13.00.00 - Pedagogika fanlari
07.00.00 - Tarix fanlari
19.00.00 - Psixologiya fanlari
01.00.00 - Fizika-matematika fanlari
02.00.00 - Kimyo fanlari
03.00.00 - Biologiya fanlari
09.00.00 - Falsafa fanlari
10.00.00 - Filologiya fanlari
11.00.00 - Geografiya fanlari

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga
ixtisoslashgan ilmiy jurnal





BOSH MUHARRIR:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Mizayeva Faroxat Odiljonovna – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Umarova H.O' – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

Qirg'izboyev A.K – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'ldoshev Q.M – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wooskyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori professor

G'afurov D.O. – falsafa fanlari doktori (PhD)

Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A.T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R.R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Panjiyev M.A – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari

Xudayberganov N.A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent temir yo'l muhandislari instituti.

EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Mizayeva Farokhat Odiljonovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Qirg'izboyev A.K – Doctor of Historical Sciences, Professor
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K.M. - Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. - Doctor of Philosophy, Professor
Gafurov D.O. - Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Mirzayeva F.O. - Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. - Doctor of Philosophy, Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. - is a Professor of Toshkent State University of Economics
Ashurov R.R. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology
Panjiyev M.A - First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N.A. - Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali Oliy attestatsiya rayosatining komissiyasining 08.05.2025 yildagi №370/5 qarori bilan Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Psixologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy nashrlar ro'yxatiga kiritilganligini ma'lum qilamiz.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo'yicha ekspert kengashi tavsiyasi (25-05-2025 y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (07-05-2025 y., №5/6); OAK Rayosatining qarori (08-05-2025 y., №370/5).

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.06.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan №C-5669245 reyestr
raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan
o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310



MUNDARIJA

O'SMIRLARDA DESTRUKTIV XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI	6
Umarov Baxriddin Mengboyevich, Jabborova Zilola Baxtiyor qizi ONA VA FARZAND MUNOSABATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	12
Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna PROFESSOR-O'QITUVCHILAR IMIJINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	17
Jo'rayeva Sohibjamol Norqobilovna OMMAVIY MADANIYATNI BOLALAR XULQ-ATVORIGA TA'SIRINI PSIXOLOGIK SHARTLARI	25
Umarova Navbahor Shokirovna PEDAGOGIK FAOLIYATDA KASBIY SO'NISH JARAYONINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK JIHATLARI.....	29
Botirova Dilafrō'z Bozorovna BULLING XULQ-ATVORINING NAMOYON BO'LISHI VA UNING MAKTAB O'QUVCHILARGA BO'LGAN TA'SIRI	35
Tillayeva Nodira Iskandar qizi TASHKILOTDA MOBBING VA UNING XODIMLAR PSIXOEMOTSIONAL SALOMATLIGIGA IJTIMOY-PSIXOLOGIK TA'SIRI	38
Xusanbayeva Ziyoda Maxmutdjon qizi OILAVIY MUNOSABATLARDA YETAKCHILIK MUAMMOLARI	42
Abdumutalova Madina Abdumalik qizi ZO'RAVONLIKKA UCHRAGAN AYOLLARNING IJTIMOY- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	45
Abdurahmanova Durdona Dilshodjon qizi SHAXSDA KREATIVLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI	50
To'raboyev Azamat Muxamadullayevich BO'LAJAK PEDAGOGLARDA KASBIY MOYILLIKNING NAMOYON BO'LISHIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLAR.....	54
Saidova Nargiza Ismatulla qizi PSIXOLOGIYA TALABALARI AMALIYOTI JARAYONIDA KASBIY REFLEKSIYA KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	58
Akbaraliyeva Asilaxon Tojiddinovna	



PSIXOLOGIYA TALABALARI AMALIYOTI JARAYONIDA KASBIY REFLEKSIYA KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH

Akbaraliyeva Asilaxon Tojiddinovna
Toshkent amaliy fanlar universiteti
"Psixologiya" kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak psixolog talabalarining o'quv-tanishuv amaliyoti davomida kasbiy refleksiya ko'nikmalarini shakllantirishga oid psixologik xususiyatlar ochib berilgan. Psixolog kasbi inson ruhiyatiga bevosita ta'sir qiladigan, yuqori darajadagi ijtimoiy mas'uliyatni talab qiluvchi kasblardan biri hisoblanadi. Shu sababli, psixolog bo'lishni istagan talabalar o'qish jarayonidanoq nafaqat nazariy bilimlarni, balki kasbiy-shaxsiy fazilatlarini ham rivojlantirishlari zarur. Ayniqsa, o'quv-tanishuv amaliyoti ushbu sifatlarni shakllantirishda dastlabki, ammo muhim bosqich hisoblanadi. Maqolada aynan shu bosqichdagi refleksiv ko'nikmalarni rivojlantirish mexanizmlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: refleksiya, kasbiy-shaxsiy rivojlanish, kompetensiya, empatiya, stress, mas'uliyatlilik, bilim, ko'nikma, malaka.

Abstract. This article explores the psychological aspects of developing professional reflection skills during the educational and familiarization practice of future psychology students. The profession of a psychologist directly affects the human psyche and requires a high degree of social responsibility. Therefore, students aspiring to become psychologists must begin cultivating not only theoretical knowledge but also professional and personal qualities early in their academic journey. Educational and familiarization practice is identified as an initial yet significant stage in this development. The article highlights mechanisms for enhancing reflective competencies during this phase.

Key words: reflection, professional-personal development, competence, empathy, stress, responsibility, knowledge, skills, qualifications.

Аннотация: В данной статье раскрываются психологические особенности формирования профессиональных рефлексивных навыков у будущих студентов-психологов в процессе учебно-ознакомительной практики. Профессия психолога оказывает непосредственное влияние на психику человека и требует высокого уровня социальной ответственности. Поэтому студенты, стремящиеся стать психологами, должны развивать не только теоретические знания, но и профессионально-личностные качества уже с первых этапов обучения. Учебно-ознакомительная практика рассматривается как начальный, но важный этап в формировании данных качеств. В статье представлены механизмы развития рефлексивных умений на этом этапе.

Ключевые рефлексия, профессионально-личностное развитие, компетентность, эмпатия, стресс, ответственность, знания, навыки, квалификация.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida psixologik xizmat ko'rsatish sifati nafaqat mutaxassisning nazariy bilimlariga, balki uning kasbiy va shaxsiy fazilatlariga ham bevosita bog'liq. Ayniqsa, psixologiya yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun o'quv-tanishuv amaliyoti ularning kasbiy shakllanishi va rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Mazkur bosqichda talabalar psixologik bilimlarga bo'lgan qiziqishini mustahkamlash, samarali muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, empatiya, tinglash madaniyati, mas'uliyat hissi va kasbiy motivatsiyani shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Shu bois, o'quv-tanishuv amaliyoti jarayonida talabalar shaxsida kasbiy-psixologik sifatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-sonli "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorning 2-bandida pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarini tizimli rivojlantirish, ulardagi boshqaruv

faoliyatini takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalarni joriy qilgan holda zamonaviy ta'lim dasturlarini ishlab chiqish hamda yuqori malakali kadrlar tayyorlashni yangi bosqichga ko'tarish vazifalari belgilab berilgan.

Shuningdek, pedagogika sohasida ta'lim, ilm-fan va amaliyot uyg'unligini ta'minlash maqsadida, pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarida kunduzgi ta'lim shaklida tahsil olayotgan 2–4-bosqich talabalari uchun haftalik o'quv mashg'ulotlari "4+2" tartibida, ya'ni darslarning to'rt kuni oliy ta'lim muassasalarida, ikki kuni esa maktabgacha ta'lim va umumiy o'rta ta'lim muassasalarida amaliyot o'tash shaklida tashkil etilishi belgilangani ko'rsatib o'tilgan.

Darhaqiqat, hozirgi global taraqqiyot sharoitida kelajak avlodning raqobatbardosh, yetuk mutaxassis sifatida shakllanishi, mustaqil fikrlovchi, mas'uliyatli va bilimli inson bo'lib voyaga yetishi uchun mam-lakatimizda ta'lim tizimiga oid keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bo'lajak psixologlarni tayyorlash jarayonida kasbiy kompetensiya tarkibidagi eng muhim komponent-lardan biri bu — kasbiy refleksiya hisoblanadi. Ushbu ko'nikma psixologlarning o'z kasbiy faoliyatini va uning natijalarini tahlil qilish, baholash va o'z-o'zini baholashga tayyorligini, shuningdek, faoliyatga o'z vaqtida tuzatishlar kiritish, tahlil qilish va kelgusidagi holatni prognoz qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi.

Tadqiqotlar natijalariga ko'ra, psixologlarning kasbiy faoliyatida refleksiyaning quyidagi turlari mavjud-ligi aniqlangan: intellektual, kooperativ, ijtimoiy-pertseptiv, shaxsiy va kommunikativ refleksiya. Ularning har biri psixologik amaliyotda muhim rol o'ynaydi va kasbiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Reflek-siya quyidagi funksiyalarni bajaradi: dizayn, tashkiliy, kommunikativ, semantik, motivatsion va tuzatuvchi, shu bilan birga u umumlashtirish xususiyatiga ham ega.

Psixologlarning kasbiy rivojlanish konsepsiyasida refleksiya — bu shaxs ichki qarama-qarshiliklarini hal etish vositasi sifatida qaraladi. Ushbu qarama-qarshiliklar odatda "men-real", "men-ideal" va "men-re-fleksiv" o'rtasidagi nomuvofiqlik natijasida yuzaga keladi (Karpov A.V., 2004).

Shu nuqtai nazardan qaralganda, insonning kasbiy mahoratga ko'tarilishi — bu mutaxassis shax-sining doimiy va izchil rivojlanish jarayonidir. Bu jarayon esa kasb tanlashdan boshlanib, butun mehnat faoliyati davomida davom etadi (Zeer E.F., 2005).

Psixolog kasbi inson ruhiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan, yuqori darajadagi ijtimoiy mas'uliyatni talab qiluvchi murakkab va mas'uliyatli kasblardan biridir. Shu sababli, psixolog bo'lishni istagan talabalar o'quv jarayonidanoq nafaqat nazariy bilimlarni, balki kasbiy-shaxsiy sifatlarni ham faol ravishda rivojlan-tirishlari zarur. Ayniqsa, o'quv-tanishuv amaliyoti ushbu sifatlarni shakllantirishda dastlabki, biroq muhim bosqich sifatida e'tirof etiladi (Tuxlabaeva M.T., 2020).

O'quv-tanishuv amaliyoti — bu talabalarga kelajakdagi kasbiy faoliyatning mohiyatini tushuntirish, nazariy bilimlarni amaliyot bilan uyg'unlashtirish, professional muhitda bevosita kuzatuv olib borish va dastlabki kasbiy tajriba orttirish imkonini beradigan bosqichdir. Ushbu bosqichning asosiy maqsadlari quy-idagilardan iborat:

- Psixologik xizmatning tarkibi va faoliyat yo'nalishlari bilan tanishish;
- Kasbiy etika, muloqot madaniyati va psixologik kuzatuv asoslarini o'rganish;
- Kasbiy refleksiya (o'z-o'zini tahlil qilish) ko'nikmalarini shakllantirish.

Kasbiy-shaxsiy sifatlari — bu psixolog kasbida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan ichki xususiyatlar, ko'nikmalar va kompetensiyalardir. Mazkur sifatlari psixologga insonlar bilan samarali muloqot qilish, murakkab muammolarni tahlil qilish, stressga bardosh berish va professional etika qoida-lariga rioya qilish imkonini beradi (Rogers C., 1961; Nurmatov S., 2018).

Quyidagi metodlar o'quv-tanishuv amaliyoti doirasida kasbiy refleksiyani rivojlantirishda qo'llaniladi:

- Kuzatuv va tahlil — amaliyotdagi psixologik faoliyatni kuzatish va muhokama qilish;
- Reflektiv kundalik yuritish — talabaning shaxsiy hissiyotlari va fikrlarini qayd etib borishi;
- Trening mashg'ulotlari — empatiya, o'zini anglash va jamoaviy muloqotni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar;

- Superviziya — ustozlar bilan muntazam ravishda tahliliy suhbatlar olib borish.

Psixolog talabalar uchun muhim kasbiy-shaxsiy sifatlari:

1. Empatiya — boshqalarning hissiyotlarini tushunish va ruhiy qo'llab-quvvatlash.
2. Faol tinglash — suhbatdoshni e'tibor bilan tinglash va tushunish.
3. Stressga bardoshlilik — psixologik bosim ostida o'zini boshqara olish.
4. Refleksiya — o'z fikrlari, his-tuyg'ulari va xatti-harakatlarini tahlil qila olish.



5. Mas'uliyatlilik – topshiriqlarga jiddiy va professional yondashish.
6. Muloqot madaniyati – ochiq, samimiy va hurmatli muloqot yurita olish.
7. O'zini rivojlantirishga intilish – o'z ustida ishlashga va doimiy o'sishga tayyorlik.
8. Axloqiy yetuklik va kasbiy etika – psixologik sirlarni saqlash va inson sha'nini hurmat qilish.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Amaliyot jarayonida bo'lajak psixolog talabalarida psixologik qo'llab-quvvatlashga ehtiyoj sezilishi mumkin. Bu ehtiyoj, ayniqsa, amaliy muhitga moslashish davrida yuzaga keladigan ikki xil hissiyotlar, o'ziga ishonchsizlik, yangi professional vaziyatlarga moslashishda yuzaga chiqadigan qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'ladi. Bunday holatlarda talabalar bilan ishlashda psixologik qo'llab-quvvatlash, ijobiy va xavfsiz psixologik muhit yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaliyot rahbarining pedagogik-psixologik yondashuvi, talabalarga nisbatan ishonch bildirish, konstruktiv fikr-mulohazalar bildirish, ularning harakatlarini rag'batlantirish va ijobiy baholash orqali kasbiy shakllanish va o'sish jarayonini samarali yo'naltirish mumkin (Xalilova G., 2020).

Shuningdek, bo'lajak psixologlarning o'zlarini psixolog sifatida anglashlari, kasbiy rolni qabul qilishlari va tanlagan kasbga nisbatan ichki munosabatlarini aniqlash maqsadida U.S. Rodigina tomonidan ishlab chiqilgan "Bo'lajak psixologlarda kasbiy identiklikni aniqlash so'rovnoma" amaliyot yakunida o'tkazildi. Ushbu so'rovnoma orqali talabalar o'zlarining kasbiy o'zligini anglash darajasini, kasbga bo'lgan motivatsiyasi va ichki tayyorgarligini o'lchash imkoniyatiga ega bo'ldilar.


TAHLIL VA NATIJALAR

So'rovnoma Toshkent amaliy fanlar Universitetining 19 ta psixologiya yo'nlishining 1-bosqich talabalarida o'tkazildi. So'rovnoma 21 ta savolnomadan iborat bo'lib, 5-to'liq roziman, 4-roziman, 3-bilmayman, 2-rozi emasman, 1- umuman rozi emasman kabi javoblardan iborat.

1-jadval

Bo'lajak psixologlarda kasbiy identiklik so'rovnomasining javoblar kaliti

1-shkala	Ma'lum bir kasbda inson ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq ijobiy-his tuyg'ular	2,4,5,11,17,20
2-shkala	Insonning ma'lum bir kasbga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq salbiy his-tuyg'ular	1,6,8,15,16,18
3-shkala	Talabaning egallagan kasbga faol munosabati pozitsiyasi	3,4,7,12,13,20
4-shkala	Talabaning egallagan kasbga passiv munosabati	8,9,10,14,19,21



1-rasm. Bo'lajak psixolog talabalarda kasbiy identiklik so'rovnoma natijalari

O'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, talabalar tomonidan to'ldirilgan javoblar varaqalari tahlil qilindi. Tahlil natijalariga asoslanib, quyidagi xulosalar chiqarildi: 1-shkala — muayyan kasb orqali inson ehtiyojlarini qondirish bilan bog'liq ijobiy his-tuyg'ular va 3-shkala — talabani egallagan kasbiga nisbatan faol munosabat pozitsiyasi yuqori natijalarni ko'rsatdi. Bu holat talabalarda kasbiy motivatsiyaning shakllana boshlaganligini va psixologik identifikatsiya jarayonining ijobiy yo'nalishda kechayotganligini ko'rsatadi.

O'quv-tanishuv amaliyoti — bu talabani kasbiy muhitga kirib borishi, nazariy bilimlarini amaliy tajriba bilan boyitishi va o'zini professional rolgga qo'yib ko'rish imkonini beradigan muhim bosqichdir. Amaliyot jarayonida talaba real ish muhitida quyidagi faoliyatlarni amalga oshiradi:

- Psixolog faoliyatini kuzatadi (muloqot olib borish, konsultatsiyalar, treninglarda ishtirok etish);
- Kasbiy rolni sinab ko'radi (masalan, kichik treningda yordamchi sifatida qatnashadi);
- Refleksiya yuritadi — kundalik yozish orqali o'z fikrlari, hissiyotlari va tajribalarini tahlil qiladi;
- Superviziya oladi — ustozlar bilan suhbat qurib, amaliy faoliyatini birgalikda tahlil qiladi;
- Guruhda ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi — jamoaviy muhitda psixologik muammolarni hal qilishni o'rganadi.

Rivojlantirish usullari va metodlari:

1. Kuzatuv va tahlil — tajribali psixologlarning ish jarayonini kuzatish va muhokama qilish orqali o'rganish.

2. Reflektiv yozuvlar — o'z his-tuyg'ulari va holatini yozma tarzda tahlil qilish.

3. Trening mashg'ulotlari — empatiya, muloqot, o'zini anglash kabi kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar.

4. Rol o'yinlari — psixolog va mijoz rollarini navbatma-navbat bajarish orqali kasbiy holatlarni sinab ko'rish.

5. Psixologik testlar va so'rovnomalar — shaxsiy sifatlarni baholash va rivojlantirish vositasi sifatida.

6. Baholash va fikr-mulohazalar olish — amaliyot rahbarlari tomonidan berilgan tahliliy izohlar kasbiy shakllanishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Amaliyot davomida kuzatilishi mumkin bo'lgan muammolar:

- O'ziga ishonchsizlik;
- Begona muhitda noqulaylik hissi;
- Psixologik holatni boshqara olmaslik;
- Tanqidni qabul qilishda qiyinchiliklar.

Bunday holatlarda ijobiy psixologik muhit yaratish, motivatsion qo'llab-quvvatlash va konstruktiv fikr-mulohazalar berish orqali talabani kasbiy rivojlanishini samarali tarzda qo'llab-quvvatlash mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bo'lajak psixolog talabalarining o'quv-tanishuv amaliyoti nafaqat nazariy bilimlarni mustahkamlash, balki ularning kasbiy-shaxsiy sifatlarini shakllantirish va rivojlantirishda ham asosiy bosqich sifatida e'tirof etiladi. Ushbu bosqichda talaba o'zini haqiqiy kasb egasi sifatida sinab ko'rish, nazariy bilimlarini amaliy tajriba bilan uyg'unlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Amaliyot davomida empatiya, mas'uliyat, muloqot ko'nikmalari, refleksiya va kasbiy identifikatsiya kabi sifatlarni rivojlantirish orqali professional psixolog shaxsining poydevori shakllanadi. Bu jarayon talabani faol ishtiroki, tashabbuskorligi va o'z ustida doimiy ishlashini talab etadi. O'quv-tanishuv amaliyoti bu borada nafaqat amaliy tajriba maktabi, balki talabani shaxsiy va kasbiy rivojlanish bosqichi sifatida xizmat qiladi.

Amaliyot jarayonida talaba o'zida zarur bo'lgan kasbiy-shaxsiy sifatlarni aniqlaydi, ularni ongli ravishda rivojlantirishga yo'naltirilgan amaliy harakatlarni amalga oshiradi. Aynan shu faol reflektiv jarayon orqali psixologik madaniyat, etik qadriyatlar, shaxslararo muloqot ko'nikmalari va kasbga nisbatan mas'uliyat hissi shakllanadi. Bu esa nafaqat o'z kasbini chin yurakdan anglash, balki professional o'zlikni rivojlantirish uchun zamin yaratadi.

Shuningdek, psixolog talabani o'quv-tanishuv amaliyoti kasbiy yo'nalishda o'sish, shaxsiy imkoniyatlarini anglash hamda psixologik ko'nikmalarni shakllantirishning hal qiluvchi bosqichidir. Ushbu amaliy jarayon talabani kasbiy qadriyatlarini aniqlashtirish, mustaqil fikrlash, axloqiy yetuklik, ijtimoiy sezgirlik va mas'uliyatlilik kabi ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Natijada, talaba o'zini psixolog kasbi egasi sifatida namoyon eta boshlaydi, bu esa kelajakdagi samarali va professional faoliyat uchun zarur bo'lgan mustahkam psixologik va axloqiy poydevorni shakllantiradi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 21.06.2022 yildagi PQ-289-son <https://lex.uz/uz/docs/-6079561>
2. Lyudmila Aleksieienko-Lemovska. Psychological features of development of professional reflexive of future psychologists. International Science Journal of Education & Linguistics 2022; 1(3):97-106
3. Зеер Э.Ф., Сыманюк Э.Э. Асимметричное профессиональное будущее современной молодежи // Педагогическое образование в России. 2013. № С. 258-263. <https://elibrary.ru/item.asp?id=20365204>
4. Zokirova M.H. – Kasbiy psixologiya asoslari. – T.: Fan, 2021.
5. Karimova R.A. – Psixologik amaliyot metodlari. – T.: O'zbekiston, 2020.
6. Bandura A. – O'z-o'zini boshqarish va refleksiya nazariyasi.
7. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi Qonuni.
8. Ilmiy maqolalar va internet manbalari (Google Scholar, eLibrary).

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Alibek ZOKIROV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin SOBIR O'G'LI

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Toshkent davlat pedagogika universitetining murojaatiga (24-04-2025 y., №11-05-2566/01) ko’ra, psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilganligini ma’lum qiladi.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo’yicha ekspert kengashi tavsiyasi (25-05-2025 y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (07-05-2025 y., №5/6); OAK Rayosatining qarori (08-05-2025 y., №370/5).

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug’bek tumani
Kumushkon ko’chasi, 26-uy.